

O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

ilmiy-nazariy, metodik
jurnal

№6(18)
2025



O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI
ilmiy-nazariy, metodik jurnali

TAHRIRIYAT HAY'ATI:

Bosh muharrir:

Madraximova Feruza Ruzimbayevna
(p.f.d., dots.)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Matyoqubov Hikmat Shuhratovich
(PhD., dots.)

Tahririyat a'zolari:

D.N.Abdullayev – t.f.d. dots.
S.R.Davletov – t.f.d. prof.
S.M.Matkarimova – t.f.d. dots.
I.S.Abdullayev – i.f.d. prof.
B.Ruzmetov – i.f.d. prof.
J.X.Ataniyozov – i.f.d. prof.
R.M.Matkarimov – p.f.d. prof.
I.Saifnazarov – f.f.d. prof.
M.S.Xajiyeva – f.f.d. prof.
E.R.Ro'ziyev – p.f.d. prof.
M.S.Salayeva – p.f.d. prof.
M.O.Atajanova – f.f.d.
S.U.Xodjaniyazov – p.f.d., dots.
D.T.Xudayberganov – i.f.d. dots.
S.T.Davlatova – t.f.d. dots.
U.I.Abdullayev – t.f.d. dots.
M.M.Matyakubova – t.f.n. dots.
D.Q.G'oyipov – f.f.d. dots.
A.D.O'rozboyev – f.f.d. dots.
B.B.Nurullayeva – ps.f.n. dots.
E.X.Zoyirov – f.f.d. dots.
O.E.Xayitov – ps.f.d. dots.
Q.P.Qobulov – ps.f.d. dots.
D.A.Urazboyeva – ps.f.d. dots.
X.R.Matyakubov – p.f.n. dots.
J.Q.Yusubov – PhD, dots.
X.X.Matyakubov – PhD, dots.
D.Atamuradova – PhD.
Z.Y.Adilov – PhD.
Z.K.Abidova – PhD.
Y.A.Karimov – PhD.
M.I.Jakbarova – PhD.

6 (18), 2025

Muassislar:

Urganch davlat pedagogika
instituti,
Ziyo scientific center MCHJ

Jurnal xalqaro ISSN 2181-3418-son
raqami bilan hamda O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2022-yilning 5-mayida
№1612-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatidan o'tgan.

Jurnal OAK Rayosatining
2024-yil 27-sentabrdagi 361-son
qarori bilan jurnal **filologiya va
psixologiya fanlari** bo'yicha
dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

**Jurnal yiliga 12 marta
chop etiladi.**

Jurnaldan olingan materiallarga
“O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy
tadqiqotlari” jurnalidan olindi”, degan
havola berilishi shart.
Mualliflardan kelgan qo'lyozma
materiallar egalariga qaytarilmaydi.

Tahririyat bilan aloqa:

E-mail: ziyo.scientific@bk.ru

Sayt: www.re-search.uz

Manzil: O'zbekiston, 220100,
Urganch shahri, Gurlan ko'chasi,
1-uy.

MUNDARIJA

FILOLOGIYA	
Jumanyazova M. X. Xorazm vohasi folklor asarlari leksikasiga mumtoz adabiyotning ta'siri (xalq dostonlari misolida).....	3
Elboyeva M. B. Poetic interpretations of poverty and wealth in the works of khayriddin sultonov and Jack London: a comparative analysis.....	8
Маматова Ф. М. Особенности возникновения лингвокогнитивных категорий.....	13
Axmedov O'. O'. Blum taksonomiyasi asosida koreys tili og'zaki nutq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish.....	20
Yunusova G. D., Sa'dullayeva O. Z. Koreys va o'zbek tillarida hasad emotsional konseptining qiyosiy tadqiqi.....	25
Исламова С. П. Фольклор в изучении русского языка – лингвистический и культурологический анализ.....	31
Mamatova D. A. Ayol obrazi va baxt izlashi: "Baxtiqaro kerri" hamda "Oyimtilla" romanida.....	35
Новик К. Р. Инглиз адабиётида аёл қаҳрамонларининг ривожланиши...	40
Niyozov J. F. Amerika adabiyotida tabiat mavzusining yoritilishi.....	46
Арипова С. А. Роль учебного словаря-минимума в интенсификации изучения иностранных языков.....	55
Muxammadiyeva M. Bulbul obrazining poetik talqini.....	59
Raximova I. B. The linguocultural approach in foreign language teaching...	66
Umarova G. A. "Hayrat ul-abror" dostonining badiiy-estetik va didaktik xususiyatlari.....	69
Halimova S. A. Hoji Muin publisistikasida maorif masalalarining yoritilishi	76
Tashpulatova V. I. Zamonaviy fentezi janri: subjanrlar, xususiyatlar va tilshunoslik belgilari.....	83
Sharipova F. Reconstructing the author's communicative intent through various linguistic devices in translation.....	89
Mirsagatova D. Homonymic features of english and uzbek railway transport terminology: a comparative analysis.....	96
Ubaydullayeva X.M. Yuridik diskurs – xususiy diskursning bir turi sifatida.	103
G'aybulloyeva U. A. Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" qissasida poetonimlar talqini.....	108
Bekova N. J., Ibroimova M. N., Jumaqulov N. I. "Sittai zaruriya" tadqiqi va tarjimasi yo'lida.....	113
Ражабова Р. З. Эркак шоирлар ижодида аллалар шакли ва мазмуни.....	119
Qodirova N S. Miyon Buzruk tanqidchiligining uslubiy xususiyatlari.....	127
Hojiyeva N. H. Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining gipo-geperonimik munosabati.....	134

Bekova Nazora Jo'rayevna
Buxoro davlat universiteti, o'zbek tili va
adbiyoti kafedrası professori, f.f.d.
bekova.nazora@mail.ru

Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
mahliyoibroimova9@gmail.com

Jumaqulov Najmiddin Ibroimovich
Buxoro davlat pedagogika instituti, ijtimoiy fanlar
kafedrası o'qituvchisi

"SITTAI ZARURIYA" TADQIQI VA TARJIMASI YO'LIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning forsiy merosi, uning nashrga tayyorlanishi, "Sittai zaruriya" tadqiqi va talqini haqida fikr yuritiladi. Navoiyning forsiy merosi ham turkiy she'rlari kabi mashhur ekanligi haqidagi izohlarga to'xtaldi. "Sittai zaruriya" qasidaları tarjimasi yo'lida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimiz haqida ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari, Navoiy ijodini o'rganish, Navoiy asarlaridagi bosh g'oya va daqiq ma'nolarni ilg'ay olish, anglash har bir davr uchun dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Kalit so'zlar: "Sittai zaruriya", "Devoni Foni", forsiy, qasida, qo'lyozma, tatabbuchiilik an'anasi, badiiyat.

Bekova Nazora Jo'rayevna
Bukhara State University, Professor, Department of Uzbek Language and
Literature. bekova.nazora@mail.ru

Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna
Bukhara State University, basic doctoral student
mahliyoibroimova9@gmail.com

Jumaqulov Najmiddin Ibroimovich
Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher, Department of Social
Sciences

TOWARDS THE RESEARCH AND TRANSLATION OF "SITTAI ZARURIYA"

Annotation. This article discusses the Persian heritage of Alisher Navoi, its preparation for publication, the study and interpretation of "Sittai zaruriya". It touched upon the comments that Navoi's Persian heritage is as famous as his Turkic poems. Information was provided about our scientists who conducted scientific research on the translation of the odes of "Sittai zaruriya". In addition, it was emphasized that studying Navoi's work, identifying and understanding the main idea and specific meanings in Navoi's works are one of the urgent issues for every era.

Keywords: "Sittai Zaruriya", "Divoni Faniy", Persian, ode, manuscript, tradition of tatabbu's writing, art.

Бекова Назора Джораевна
Бухарский государственный университет, профессор кафедры
узбекского языка и литературы.
bekova.nazora@mail.ru

Иброимова Махлиё Наджмидиновна
Бухарский государственный университет, базовый докторант
mahliyoibroimova9@gmail.com

Джумакулов Нажмиддин Иброимович
Бухарский государственный педагогический
институт, преподаватель кафедры социальных наук

К ИССЛЕДОВАНИЮ И ПЕРЕВОДУ «СИТТАЙ ЗАРУРИЯ»

Аннотация. В статье рассматривается персидское наследие Алишера Навои, его подготовка к публикации, а также изучение и интерпретация «Ситтай Зарурия». Он коснулся замечаний о том, что персидское наследие Навои так же известно, как и его тюркские поэмы. Была предоставлена информация о наших ученых, проводивших научные исследования по переводу од «Ситтай Зарурия». Кроме того, было подчеркнуто, что изучение творчества Навои, выявление и понимание основных идей и конкретных смыслов в произведениях Навои являются актуальными вопросами для каждой эпохи.

Ключевые слова: «Ситтай Зарурия», «Дивони Фаний», персидский, ода, рукопись, традиция написания татаббу, искусство.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Alisher Navoiy ijodini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Chunki bu davrda Navoiyning asarlari tarkibidagi hamd va na't g'azallar yanada chuquqroq o'rganildi, ijodiy merosining mohiyati ochib berildi, asarlaridgi islomiy-irfoniy, tasavvufiy g'oyalar tahlil qilindi, asl mohiyat ochib berildi.

Alisher Navoiy siymosi esa haqiqiy komil inson, haqiqiy ibrat timsoli sifatida e'tirof etildi. Chunki bu davrda milliy o'zlikni anglash, o'zbekona milliy qadriyatlarni tiklash bosh maqsad edi. Olimlarimiz 6 asrdan buyon Alisher Navoiyning boy merosi va shaxsini o'rganib kelmoqdalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rmini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish"[1. B.37] nihoyatda muhim. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning barcha asarlari haqiqiy inson qanday bo'lishi kerak, kaomil inson sifatleri, Olloh va olam aloqadorligi masalalarini yoritib beruvchi manba hisoblanadi. Chunki uning asarlari markazida Islom ahkomi va tasavvufiy ta'limot yotadi. Bundan tashqari, Navoiy so'z mulkining sultoni hamdir. Shu paytgacha hali hech qaysi shoir, Bobur aytganidek, Navoiychalik ko'b va xo'p yozgan emas. Shoiming hayoti va ijodini o'rganish allaqachon boshlanganiga qaramay, haliyam ko'pgina olimlarimiz tomonidan o'rganilmoqda. Zero, Navoiyni o'qigan insonning ham ilmi oshadi, ham ruhi yengillashadi, hamda qalban Ollohga yaqinlashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alisher Navoiyning asarlarini o'rganish har doim ham ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Buyuk shoir Alisher Navoiy o'zining nodir asarlari bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Uning asarlari dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. Eng e'tiborlisi shuki, buyuk shoir o'z asarlarida takrorlanmas so'zlardan foydalangani, ma'lum bir turkiy so'zning forsiy va arabiy sinonimlaridan, antonimlaridan istifoda etgani uning til va adabiyot sohasida juda katta iste'dod va mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki forsiy tilda ham barakali ijod qildi. Shu sababli biz Navoiyni zullisonayn shoir deb ayta olamiz. Forsiy she'rlarida Foniyl taxallusini qo'llagan. Uning forsiy tilda yozilgan asarlari "Devoni Foniyl" ga jamlangan. Navoiy- Foniylning forsiy merosiga munosabat sobiq ittifoq yillarida bir qancha olim-u olimlalarimizning samarali mehnatlari tufayli yangi pog'onaga ko'tarildi. Jumladan, A.Fitrat, Hakim Homidiy, P.Shamsiyev, O.Sharafiddinov, Sh.Shomammedov, H.Sulaymon, N.Mallayev, S.Erkinov, B.Valixojayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, Yo.I'shoqov, S.G'aniyeva, I.Haqqulov, M.Qodirova, A.Shomammedov, Sh. Shukurov singari olimlarimiz Navoiy ijodini o'rganish yo'lida barakali ijod qildilar. Istiqlol yillarida esa ilmnimg bu yo'nalishida bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, A.Qayumov, N.Komilov, S.Erkinov, R.Vohidov, A.Abdullayev, Sh.Sirojiddinov, S.Rafiddinov, E.Ochilov, H.Eshonqulov, S.Sotiboldiyeva, L.Zohidov, G.Boltayeva, O.Davlatov, D.Yusupova kabi olimlarning asarlari,ilmiy tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi. [2.B.95]

Forsiyda bitilgan, 724 baytdan iborat "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") ning to'la matnini professor Hamid Sulaymon ulug' shoirning Parij Milliy kutubxonasida 285-raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma devoni asosida arabiy va krill imlosida 1968 yilda "Adabiy meros" majmuasida nashr ettirdi. [3. B. 199-282]

Oradan yigirma besh yil o'tgach, bu yo'lni tojik adabiyotshunosi Ali Muhammadiy davom ettirdi, ya'ni qasidalar turkumi Dushanbeda (1993-yil) arab yozuvida "Irfon" nashriyotida ulug' o'zbek shoiri forsiy she'rlar bir jildlik saylanmasi tarkibida chop etildi. [3.B. 199-282]

M.Qodirovaning "Alisher Foni qasidalar" mavzusidagi nomzodlik dissertastiyasi sobiq mafkura davrida ayni mavzuda yaratilgan ilk yaxlit tadqiqot sanaladi.

R.Vohidov va M.Mahmudovlarning "Ma'naviyat – komillik saodati" risolasida Alisher Navoiyning nisbatan kam o'rganilgan "Sittayi zaruriya", "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining g'oya va mavzular olami xususida jiddiy mulohazalar bildirildi. Prof. R.Vohidovning "Sittayi zaruriyada tatabbu'" maqolasida mazkur turkumning g'oyaviy ildizlari tatabbuchilik an'anasi, qasidalarining yozilish tarixi haqida keng ma'lumot beriladi. Prof. Najmiddin Komilovning "Faqr nuri porlagan qalb", "Xizr chashmasi" kitobida "Sittayi zaruriya" tarkibidagi qasidalar, ularning badiiyati, tatabbuchilik an'anasi xususida qiziqarli fikrlarni o'qish mumkin. Adabiyotshunos N.Bekovanning "Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul- quds"qasidasining badiiyati "nomli nomzodlik ishida ham mazkur mavzuga doir asosli fikrlar bildirilgan. [8.B. 10-18]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navoiyning fors-tojik asarlariga qiziqish o'tgan asrning 20-yillaridan boshlandi. Jumladan, Fitrat Navoiyning forsiy merosini chuqur o'rganib, uning qasidalar Abdurahmon Jomiy va Xusrav Dehlaviyning qasidalariga javobiya tarzida yozilganligi o'z maqolalarida ta'kidlab o'tadi. Alisher Navoiyning forsiy merosi ham turkey merosidan qolishmagan. Shoirning o'zi ham "Muhokamat ul lug'atayn" asarida forsiy she'rlarini ham la'l va gavharga qiyoslagan. Shu sababli ham shoirning forsiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Uning forsiy asarlarini o'qib o'rganish uchun yaxshi bir tarjimonga ehtiyoj bor edi. 60- yillardayoq Natan Mallayev "Devoni Foni"ni poetik tarjima qilish ustida ish boshladi. Adabiyotshunos olim Ergash Ochilov aytganlaridek, "Devoni Foni" tarjimasi yo'lidagi jiddiy qadamni O'zbekiston xalq shoiri, zabardast tarjimon Jamol Kamol qo'ydi. U tarjima otlig' tubsiz ummon qa'riga sho'ng'ib, juda ko'p bebaho marvaridlarni olib chiqqan. Ular hozirgi kunda o'zbek tarjima adabiyoti degan muhtasham koshonani bezab turibdi. [7.B. 2-3] Jamol Kamol Navoiyning forsiy merosidan 200 g'azal va 10 ta qasidani aruz vaznida tarjima qilib, alohida kitob holida nashr ettirganlar. (Mir Alisher Navoiy. Foni gulshani (g'azallar va qasidalar) . Toshkent, 2011) Mas'ul moharrir Asror Samad, so'z boshi muallifi Ibrohim Haqqul. Jamol Kamolning by tarjima kitobini o'qib, Ibrohim Haqqul o'zining iliq fikrlarini aytadi. Ya'ni asarning she'riy tarjima qilinganligi kitobxonda o'zgacha fikr va taassurot uyg'otishini, bu kabi xayrli va adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shadigan ishlar to'xtab qolmasligini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, tarjima matni ravon, sodda

hamda g'alislikdan holi. Bundan tashqari, tarjimon asardagi bosh g'oyani ham o'zbekcha tarzda kitobxonga yetkaza olgan. Ayniqsa, "Sittai zaruriya" qasidalarini tarjimasida tarjimon qasidaning asosiy g'oyasini, badiiy maqsadini to'la his qilib, tarjimada ham bu g'oyani aks ettirganida ko'rishimiz mumkin.

"Devoni Foni" tarjimasi va talqini haqida gapirar ekanmiz, yana bir adabiyotshunos olim, Navoiy asarlari bilimdoni Najmiddin Komilovning "Hizr chashmasi" haqida to'xtalmasak bo'lmaydi. 2005-yil Toshkentda, "Ma'naviyat" nashriyotida nashr etilgan bu kitob 314 betdan iborat. Mas'ul moharrir: S.Olimov. Najmiddin Komilov bu asarida Navoiy asarlarining ma'nolar ummoni ekanligi, bu ummon dilga quvvat, ruhga madad bag'ishlashi va insonni komillik sari yetaklashini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "Sittai zaruriya" qasidalarini birma-bir tahlilga tortiladi. Qasidalaridagi ibratli, ilohiy-irfoniy g'oyalar, islomiy qarashlar va komillik yo'llari haqida tushunarli va ravon tarzda izohlab beriladi.

Yana bir navoiyshunos olim Bekova Nazora Jo'rayevna ham Navoiyning "Devoni Foni" asari tarjimasi haqidagi asosli fikrlarni o'zlarining "Ishqing, yuraging ersa, Navoiyni o'qi..." maqolalarida ta'kidlab o'tganlar. Bu maqolada Navoiyning forsiy merosi, uning o'rganilganlik darajasi, asar tarjimasini yaratgan zabardast tarjimon Jamol Kamol haqida ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Boburning Navoiyning forsiy asarlariga nisbatan bildirgan asossiz fikrlarini adabiyotshunos olim Fitrat tomonidan izohlanishi, buning isboti o'laroq, Foniyning forsiy merosi haqida o'z asarida berilgan bayt orqali izohlanganini ham ko'rishimiz mumkin. Olimaning 300 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari, 10 ta monografiya, 30 dan ortiq darslik, o'quv-qo'llanma, 6 ta elektron darslik hamda doktorlik dissertatsiyasi Navoiyshunoslik va adabiyotshunoslik ilmidagi yetakchi ahamiyatga ega asarlar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillikdan keyin Navoiy ijodini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Navoiyning asarlari tarkibidagi hamd va na't g'azallar yanada chuqurroq o'rganildi, ijodiy merosining mohiyati ochib berildi, asarlaridagi islomiy-irfoniy, tasavvufiy g'oyalar tahlil qilindi, asl mohiyat ochib berildi. Alisher Navoiy siymosi esa haqiqiy komil inson, haqiqiy ibrat timsoli sifatida e'tirof etildi. Navoiyning forsiy merosi ham ko'pgina olimlarimiz tomonidan astoydil o'rganildi. Professor Hamid Sulaymon, Ali Muhammadiy kabi olimlarimizning mehnatlari tufayli Navoiyning qasidalarini nashr etildi. Jamol Kamol, Natan Mallayev, N.Bekova kabi adabiyotshunosning harakatlari bilan qasidalar tarjima qilindi. Bu kabi tadqiqotlar adabiyotshunoslikning yutug'i hisoblanadi.

Navoiy ijodini o'rganish, Navoiy asarlaridagi bosh g'oya va daqiq ma'nolarni ilg'ay olish, anglash har bir davr uchun dolzarb masalalardan biridir.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk sho'ir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University, 37-b <https://journal.fdu.uz> ISSN 2181-1571 2025/ N:1

2. Bekova N.J. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati, Buxoro- 2021 УДК: [821.222.1-1:801.6]-95 Навоий

3. Адабий мерос. Хужжат ва тадқиқотлар. Тошкент: Фан, 1968, 199-282-бетлар. Фони Амир Алишер. Девони форси (мунтахаб). –Душанбе: Ирфон, 1993.

4. Воҳидов Р, Неъматов Ш, Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.-Тошкент: Ёзувчи, 2001. Воҳидов Р. «Ситтаи зарурия»да татаббуъ || Бухоро университети илмий ахборотлари. 2001, 1-сон, 10-18-бетлар.

5. Сирожиддинов Ш. Навоий ғазалларида Оллоҳ мадҳи|| Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2001, 1-сон, 51-55-бетлар. Салохий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий тақомили || филол. Фан. Док.дис-Тошкент, 2001, 119-124-бетлар. Эшонқулов Х. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар || филология Фан ном.дис. автореф. Самарқанд, 1999, 18-20 бетлар. Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари Тошкент: Маънавият, 2001, 3-8-бетлар.

6. Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва "Рух ул- кудс" касидасининг бадийати. Филология фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2003. –Б.158.

7. Bekova N.J. Ishqing, yuraging ersa, Navoiyni o'qi... BEST JOURNAL OF INNOVATION

Bekova N.J. Ishqing, yuraging ersa, Navoiyni o'qi... BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:3 Issue:4 | 2024

8. Қаранг.Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб.-Тошкент: Маънавият, 2001.